

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

Qo‘lyozma huquqida
UDK: 657.6-051:336.722.117.7

UMAROV ZAFAR ABSAMATOVICH

**TIJORAT BANKLARI KREDITLASHTIRISH
OPERATSIYALARINING BUXGALTERIYA
HISOBI VA ICHKI AUDITI METODOLOGIYASINI
TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.07 - Moliya, pul muomalasi va kredit

08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit

iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

DISSERTATSIYASI

TOSHKENT-2025

MUNDARIJA:

KIRISH.....	3
I BOB. TIJORAT BANKLARIDA KREDITLASHTIRISHTIRISH OPERATSIYALARI, ULARNING BUXGALTERIYA HISOBI VA ICHKI AUDITINING NAZARIY VA METODOLOGIK ASOSLARI.....	17
1.1. Tijorat banklarida kreditlashtirishning mohiyati va tavsifi	17
1.2. Banklarda kreditlashtirish operatsiyalari buxgalteriya hisobining nazariy masalalari.....	33
1.3. Tijorat banklarida kreditlashtirish operatsiyalari ichki auditining nazariy-uslubiy masalari.....	45
1.4. Birinchi bob bo'yicha xulosa	55
II BOB. BANKLARDA KREDITLASHTIRISHTIRISH OPERATSIYALARI BUXGALTERIYA HISOBINING TASHKIL ETILISHI.....	57
2.1. Tijorat bankida mikroqarz, overdraft krediti va uni hisobga olish	57
2.2. Kredit munosabatlarini yuzaga keltiruvchi bank kafolati, faktoring, forfeyting va ularning buxgalteriya hisobi.....	71
2.3. Tijorat banklarida sinditsiyalashtirilgan kreditlarni buxgalteriya hisobi.....	83
2.4. Ikkinchi bob bo'yicha xulosa	95
III BOB. TIJORAT BANKLARIDA KREDIT OPERATSIYALARI ICHKI AUDITINI TASHKIL QILISH AMALIYOTI TAHLILI.....	97
3.1. Bankda kreditlashtirish operatsiyalari ichki auditini tashkil etilishi.....	97
3.2. Tijorat banki kreditlashtirish operatsiyalari ichki auditida tahliliy amallarni qo'llash	113
3.3. Bank kredit portfeli ichki auditini amalga oshirish.....	130
3.4. Uchinchi bob bo'yicha xulosa.....	143
IV BOB. KREDITLASHTIRISHTIRISH OPERATSIYALAR BUXGALTERIYA HISOBINING METODOLOGIK ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH	145
4.1. Banklarda kreditlar buxgalteriya hisobini MHXS (IFRS) 9 «Moliyaviy vositalar»ni qo'llash asosida takomillashtirish	145

4.2. Tijorat banklarida kreditlashtirish operatsiyalari buxgalteriya hisobini takomillashtirish	157
4.3. To‘rtinchi bob bo‘yicha xulosa	171
V BOB. TIJORAT BANKLARIDA KREDITLASHTIRISHTIRISH OPERATSIYALARI ICHKI AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH	173
5.1. Kredit portfeli va kredit riski ichki auditda monitoring hamda stress-test o‘tkazish orqali takomillashtirish.....	173
5.2. Tijorat banklarida kreditlashtirishni ekonometrik tadqiq qilish orqali ichki auditini takomillashtirish.....	188
5.3. Banklarda kreditlashtirish amaliyoti ichki auditini takomillashtirish masalalari.....	198
5.4. Beshinchi bob bo‘yicha xulosa	209
XULOSA	212
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	215

KIRISH

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda so‘nggi o‘n yillikda xalqaro moliyaviy munosabatlar tizimida kreditlashtirish amaliyotining roli keskin ortgani kuzatilmoqda. Jahon banki, Xalqaro Valyuta Jamg‘armasi (IMF), Evropa Tiklanish va Taraqqiyot Banki (EBRD) hamda BMTning Sanoatni rivojlantirish tashkiloti (UNIDO) kabi xalqaro moliyaviy va iqtisodiy institutlar o‘z hisobotlarida qayd etganidek, kreditlash tizimi iqtisodiy o‘sishni jadallashtirish, kichik va o‘rta tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash hamda infratuzilmaviy loyihalarni moliyalashtirishda muhim rol o‘ynaydi. Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, qarz munosabatlarida yuzaga keladigan kredit risklarni o‘z vaqtida to‘g‘ri baholamaslik riskni keng tarqalib, nafaqat bir tijorat bankida, balki mamlakat bank tizimida va mamlakat o‘zida, o‘z navbatida butun dunyoda inqirozli hodisalarga olib kelishi mumkin. Bu nafaqat davlat darajasida, balki xalqaro miqyosda ham kredit riskini tartibga soluvchi organlarning paydo bo‘lishi zarurligini tushuntiradi. Xususan, Bazel qo‘mitasi, Jahon banki, Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (MHXS) bo‘yicha qo‘mita hamda Xalqaro ichki auditorlar instituti singari nufuzli moliya tashkilotlari kreditlash operatsiyalarini amalga oshirish, ularni buxgalteriya hisobida va moliyaviy hisobotlarda to‘g‘ri aks ettirish, shuningdek ichki audit tekshiruvlarini samarali tashkil etish borasida muntazam ravishda metodik tavsiyalar va ko‘rsatmalar ishlab chiqib kelmoqda. «2023-yil yakuniga ko‘ra, global qarz miqdori 250 trln. AQSh dollariga etdi. Bu ko‘rsatkich jahon YaIMga nisbatan hisoblaganda taxminan 237 foizni tashkil etdi va o‘tgan yilga nisbatan 1 foiz punktga pasaygani kuzatildi»¹. Ushbu holat kredit qarzдорligini shaffof hisobga olish hamda nazorat jarayonlarini kuchaytirish zarurligini ko‘rsatadi.

Jahon xo‘jaligining tezkor o‘sishi, bozor munosabatlarining chuqurlashuvi hamda iqtisodiy aloqalarning global miqyosda kengayib borishi sharoitida kreditlash tizimi milliy iqtisodiyotlarning barqaror rivojlanishini ta‘minlashda muhim o‘rin

¹ International Monetary Fund 2024 Global Debt Monitor, December 2024
<https://www.imf.org/external/datamapper/GDD/2024%20Global%20Debt%20Monitor.pdf>